

**YANGI AFSONAVIY “BAHOR” DAVLAT RAQS ANSAMBLI
P.I.CHAYKOVSKIY SAHNASIDA!**

Xayrullo Atavullayev

O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Ma’naviyat va ma’rifat” bo’lim boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada afsonaviy yangi “Bahor” davlat raqs ansambl qayta shakllanish tarixi, P.I.Chaykovskiy nomidagi katta teatrda bo’lib o’tgan konsert dasturi va raqs repertuarlari haqida argumentlarga asoslangan holda ilmiy-tadqiq etiladi.

Kalit so’zlar: Bahor, afsona, raqs, san’at, tarix, avlod, teatr, namoyon, zamon, iste’dod, raqqosa.

Har bir raqs san’ati o’zining siri bilan ijodkorlarni o’z dunyosiga qamrab oladi. O’zbek raqs san’atining ham sirli dunyosi mavjud. O’zbek raqs san’ati tarixiga yuzlanar ekanmiz, Muhiddin Qori Yoqubov, Yusufjon qiziq Shakarjanov, Usta olim Komilov, Tamaraxonim, Gavhar Rahimova, Isoqor Oqilov Mukaramma Turg’unboyeva va izdoshlari Quduz Mirkarimova, Roziya Karimova, Margarita Oqilova, Viloyat Oqilova, Galiya Izmaylova, Bernora Qoriyeva, Gulnora Mavvayeva, Ma’mura Ergasheva, Ziyoda Madrahimova, Qodir Mo’mnov, Nazriddin Shermatov, O’g’oloy Muhammedova, Qizlarxon Do’stmuhammedova, Gulnara Nizamova va hokazolar o’zbek raqs san’ati namoyondalaridir.

1957 yil ilk bor “Bahor” davlat raqs ansambl ochilgan. Bu ansamblning o’zbek raqs san’atida boshqa ansamblardan farqi shundaki, ushbu ansambl a’zolari faqat qizlardan tashkil topgan. Ansambl baletmeysteri Mukarrama Turg’unboyeva 40 ta go’zalni o’zbek raqs san’atida bir xil raqs libosi, soch turmagi, grimlari va qizlarning bo’y o’lchovlari bilan ajralib qo’yadi. “Bahor valsi”, “Katta o’yin”, “Zang”, “Paxta”, “Pilla”, “Rohat” “Munojot”, “Andijon polkasi”, “Namanganni olmasi”, “Xorazm lazgisi”, “Buxoro doirasi” va hokazo raqlarini butun raqs san’ati ijodkorlari tan olgan.

2020 yili fevral oyida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan (PQ 4585) “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari bilan “Bahor” davlat raqs ansambl qayta tiklandi. Bu farmon mamlakatimiz raqs san’ati taraqqiy yo’lida yangi raqs san’ati izdosh avlodlarini tarbiyalashda va yetishtirishda katta eshiklarni oolib berdi. Yangi afsonaviy “Bahor” davlat raqs ansambliga badiiy rahbar etib Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Ziyoda Madrahimova tayinlandi.⁹ “Rostini aytganda, “Bahor” davlat raqs ansamblining badiiy rahbari etib tayinlanganim men uchun kutilmagan voqeа bo’ldi. Shu yili jahonda ayanchli hollardan biri pandemiya paytida sodir bo’lgani uchun men

⁹ O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy journal, №2/2022 yil nashr etilgan, 39-bet.

20-Fevral, 2025-yil

qanaqasiga onlayn tarzda boshqaraman deb o'ylandim. Raqqosalarning ilk tanlovini video tasvir bo'yicha o'tkazishga to'g'ri keldi. 150 ta nomzoddan 70 tasi tanlanib olinib, ulardan 25 tasi jonli kastingga taklif qilindi. Shundan keyingina maxsus komissiya 25 ta qizdan atiga 16 tasini tanladi. Bugungi kunda jamoamizda 30 ta raqqosa bor. Ozgina qo'shsak yana 40 ta gozalni yig'gan bo'lamic" deydi 2022 yil "O'zbekiston" jurnaliga bergan intervyusida. Oradan vaqt o'tib 2023 yilga kelib haqiqatdan 40 ta go'zaldan iborat jamoa jamlandi.

2021 yil 5 iyun oyida Rossiya Federatsiya Moskva shahrida P.I.Chaykovskiy nomidagi Katta zalida "Bahor" davlat raqs ansamblining konsert dasturidagi raqlaridan bir nechta raqlari yoritiladi. Mazkur konsert dasturi Rejissyor: Askar Xolmuminov, Rassom: Akmaljon Jamoldinov, Direktor: Gulnora Musayeva.

1.¹⁰"Bahor valsi" raqsi: Musiqa muallifi O'zbekiston xalq artisti, bastakor Muhammadjon Mirzayev, raqs muallifi O'zbekiston xalq artisti Mukaramma Turg'unboyeva. Sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Z.Madrahimova. Bu raqs ansambl tuzilgan yildan boshlab, ansamblni kalitiy raqsi hisoblanadi. Libosi: Pushti rangli uzun ko'yak, yashil rangli nimcha, bosh qismining o'ng tomonida butaforiyadan foydalangan o'rik gul, qollarida esa o'rik shodasidan iborat bo'lgan yasama gul.

2."Rohat" raqsi, musiqa muallifi: O'zbekiston xalq artisti, bastakor Muhammadjon Mirzayev, Sayfiddin Yo'ldoshev, raqs muallifi: O'zbekiston xalq artisti Mukaramma Turg'unboyeva. Sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Z.Madrahimova. Jamoaviy va yakka raqs bo'lib, o'zbek qizlarining nozik va nafisligi, raqsni erkin rohatlanib ijro etilishi bilan o'zbek raqs san'ati xazinasida ajralib turadi. ¹¹Libosi: Ushbu raqsga bosh kiyimi boshqa raqlardan farqli bo'lib, durra toj singari o'raladi. Tizzadan ozroq pastgacha bo'lgan qismdan tashkil topib, sariq, sabzi rang (oranjeviy), zangor (to'q yashil), moviy, pushti ranglaridan hosil bo'lgan ko'yak. Lozimi ko'yak rangidan bo'lib, to'piq qismi chirolyi o'zbek tasmasi bilan bezatilgan.

3."Bayot" raqsi, musiqa muallifi: O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik, bastakor Yunus Radjabi, raqs muallifi: O'zbekiston xalq artisti Mukaramma Turg'unboyeva, sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Z.Madrahimova. Ushbu raqs ham o'zbek raqs san'ati xazinasi bo'lib, o'zbek millati qizlarining yuksak qudrati, nazokati, quvnoqligi, nozikarashmasi bilan mimikalar asosida ijro etiladi. Libosi: dunyoga mashhur bo'lgan o'zbek atlas ko'yagli, to'q rangdan, barxt materialidan tikilgan, qo'l mehnati bilan bezatilgan kichik nimcha, boshlarida o'zbek qizlar do'ppisi.

4. "Pilla" raqsi, musiqa muallif: O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov, raqs muallifi: O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov va O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim, sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekistonda

¹⁰ P.I.Chaykovskiy nomidagi konsert zalidagi "Bahor" davlat raqs ansamblini konsert dasturidan, 05.06.2021 yil.

¹¹ "Bahor" davlat raqs ansamblini raqqosalari ("Nihol" mukofoti sovrindori Komildjanova Dilbarxon va Turgunpo'latova Shoxsanam) og'zaki suhbat.

20-Fevral, 2025-yil

xizmat ko’rsatgan artist Z.Madrahimova, ijro etuvchi: “Bahor” davlat raqs ansamblı a’zosi “Nihol” davlat mukofoti sovrindori Dilbarxon Komiljonova, doirada G’ulomjon Muxammedjanov. O’zbek raqs san’ati xazinasining bir qismini egallovchi bu raqs Doira sadosida ijro etiladi. Mehnat raqs san’ati turiga kiruvchi bo’lib, xalq cholg’ularining biri doira asbobining naqadar sirli va ajoyib cholg’u ekanligini ko’rsatadi. Libosi: O’zbek qizlar do’ppisi, ¹²uzun oq rangli ko’ylak, qora yokida to’q qizil barxt materialidan tikilgan nimchalar.

5. “Farg’ona ruboisi” raqsi, o’zbek xalq kuyi, raqs muallifi: O’zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg’unboyeva, sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Ziyoda Madrahimova. Jamoaviy raqs bo’lib, Farg’ona viloyatining kuchli va mehnatkash ayollarini gavdalantirgan raqs.

6. “Xalqlar do’stligi” raqs kompozitsiyasi, xalq terma kuylaridan, raqs muallifi: O’zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg’unboyeva, sahnalashtiruvchi xoreograf: Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Ziyoda Madrahimova. Bu raqs syujetli raqs bo’lib, beshta millatga ahamiyat kasb etilgan. Raqs boshida o’zbegim raqqosasi o’zbek millatini bag’rikengligi, mehmondo’stligi va jozibasini raqs harakatlari bilan ijro etib, azarbajon, qozoq, turkman, qirg’iz va tojik millatlari raqqosalarini raqsga taklif etadi. Har bir millat chiqishida o’z milliy qadriyatlarini, liboslarini raqsda namoyish etadi. Z.Madrahimova liboslarini yaratilishida naqshlari, taqinchoqlariga ham alohida e’tibor qaratib, sahnada raqs syujetini yorqin tarzda ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu repertuar raqlarini butun dunyoga mashhur raqlaridan parchalardir. Dastur tuzilishida ham mantiqiylik va javobgarlikni ko’rishimiz mumkin. Dastlab “Bahor” davlat raqs ansamblini ramziyiliqi, kaliti “Bahor valsi” raqsi bilan boshlangan. O’zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg’unboyeva va Usta Olim Komilov, Qunduz Mirkarimova raqlari bilan boshlangan. Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Ziyoda Madrahimova esa yangi afsonaviy “Bahor” davlat raqs ansamblini repertuarini qayta rivojlantirish yo’lida yangi raqlarni ham sahnalashtirgan. Milliylik qadriyatlarimiz ham bu raqlarda harakatlar, mimika va liboslar orqali chiroyli yoritilib bergen.

. Prezidentimiz hozirgi kunda har bir sohada Ustoz-shogird an’analari bo’yicha bir qancha farmonlar tasdiqlanib amalda ham qo’llanmoqda. Bunga misol sifatida Ziyoda Madrahimova shogirdlaridan biri yosh iste’dodli raqqosa “Bahor” davlat raqs ansamblı a’zosi, “Nihol” davlat mukofoti sovrindori Yoqutxon Xasanovaning sahnalashtirgan raqs kompozitsiyasi tahsinga sazovordir.

Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Ziyoda Madrahimova sahnalashtirgan “Yangi O’zbekiston” raqsi esa zamon talabiga mos bo’lib, yurtimiz rivojlanishi yo’lida Yangi O’zbekiston shiorini, strategiyasini misol qilishimiz mumkin. Ushbu raqs ham o’zbek milliy raqs san’ati oltin fondidan joy olishga loyiqidir.

¹² “Tansi ansambylya Bahor” Roziya Karimova kitobi, 1979 yil nashr etilgan, 145-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal, №2/2022 yil nashr etilgan, 39-bet.
2. P.I.Chaykovskiy nomidagi konsert zalidagi “Bahor” davlat raqs ansamblı konsert dasturidan, 05.06.2021 yil.
3. “Tansi ansambly Bahor” Roziya Karimova kitobi, 1979 yil nashr etilgan, 145-bet.
4. “Bahor” davlat raqs ansamblı raqqosalari (“Nihol” mukofoti sovrindori Komildjanova Dilbarxon va Turgunpo’latova Shoxsanam) og’zaki suhbat.

